QORAQALPOG‘ISTONDAGI O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASIDA QADIMIY O‘ZLASHMALAR TAHLILI

Nurjonov Oybek Erkin o‘g‘li
oybeknurjanov5@gmail.com
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston hududida istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning shevalari leksik tarkibida saqlanib qolgan qadimiy o‘zlashmalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zlashma birliklarning tarixiy-etimologik manbalari, semantik xususiyatlari hamda shevalarda qo‘llanish doirasi yoritiladi. Shuningdek, qadimiy o‘zlashmalarning hududiy shevalar leksikasida saqlanishiga ta’sir ko‘rsatgan lingvistik va ekstralingvistik omillar masalasiga e’tibor qaratiladi. Sheva materiallari asosida o‘zlashmalarning o‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti va hududiy til aloqalarini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston, o‘zbek shevalari, sheva leksikasi, qadimiy o‘zlashmalar, etimologiya, leksik qatlam, til aloqalari, tarixiy leksika

AN ANALYSIS OF ANCIENT BORROWINGS IN THE LEXICON OF UZBEK DIALECTS SPOKEN IN KARAKALPAKSTAN

Nurjonov Oybek Erkin o‘g‘li
oybeknurjanov5@gmail.com
Berdaq Karakalpak State University

Abstract: This article analyzes the ancient loanwords preserved in the lexical composition of the Uzbek dialects spoken by Uzbeks residing in the territory of Karakalpakstan. The study examines the historical and etymological sources of borrowed lexical units, their semantic characteristics, and their scope of use in local dialects. Particular attention is also paid to the linguistic and extralinguistic factors that have contributed to the preservation of ancient loanwords in the lexicon of regional Uzbek dialects. Based on dialectal materials, the study reveals the scholarly significance of these borrowings for investigating the historical development of the Uzbek language and regional language contacts.

Keywords: Karakalpakstan, Uzbek dialects, dialectal lexicon, ancient loanwords, etymology, lexical layer, language contacts, historical lexicon

Tilning lug‘at tarkibi xalqning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti, turli xalqlar va elatlar bilan kechgan ijtimoiy-madaniy munosabatlari hamda hududiy aloqalarini

(cc) BY

o‘zida mujassam etuvchi muhim manbalardan biridir. Ayniqsa, shevalar leksikasi adabiy til tarkibida faol qo‘llanmaydigan yoki tarixiy jihatdan chegaralangan ko‘plab birliklarni saqlab qolishi bilan til tarixini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Qoraqalpog‘iston hududida yashovchi o‘zbeklarning turli shevalari leksik tarkibini tadqiq etish o‘zbek tilining tarixiy-lisoniy taraqqiyotini yoritish, uning boshqa tillar bilan uzoq muddatli aloqalarini aniqlash uchun muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.[1; 176]

Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘zbek shevalari o‘zining tarixiy shakllanish sharoiti, hududiy joylashuvi va turli etnik guruhlar bilan kechgan aloqalari natijasida o‘ziga xos leksik qatlamlarni shakllantirgan. Mazkur leksik qatlam tarkibida qadimgi turkiy birliklar bilan bir qatorda boshqa tillardan tarixiy davrlarda o‘zlashgan va bugungi kungacha sheva nutqida saqlanib kelayotgan so‘zlar ham uchraydi. Bunday birliklarni faqat zamonaviy ma’no va shakli asosida emas, balki ularning etimologiyasi, fonetik-morfologik o‘zgarishlari, semantik taraqqiyoti hamda boshqa turkiy tillardagi muqobillari bilan qiyosiy tahlil qilish zarur.

Qadimiy o‘zlashmalarning sheva leksikasida saqlanishi til birliklarining tarixiy barqarorligini ko‘rsatish bilan birga, hududlararo va tillararo aloqalarning izlarini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari leksikasida uchraydigan qadimiy o‘zlashmalarni tizimli ravishda o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi, tarixiy leksikologiya va etimologiya uchun muhim ilmiy natijalar berishi mumkin. Mazkur maqolada ana shu birliklarning ayrimlari tarixiy-etimologik va leksik-semantik jihatdan tahlil qilinib, ularning sheva leksikasidagi o‘rni va til tarixini yoritishdagi ahamiyati aniqlangan.

Arab va fors tojik tillaridan kirgan so‘zlar.

Qipchoq shevalarida adabiy tilimizga, shahar shevalariga va hatto, g‘arbiy guruh qipchoq shevalariga nisbatan arabcha, xususan, forscha va tojikcha so‘zlar juda kam qo‘llanadi. Ulardan borlari ham ko‘pincha kuchli fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda qo‘llanadi. Masalan, adabiy tilimizdagi aslida arabcha yoki forscha-tojikcha bo‘lgan ko‘pgina so‘zlar sharqiy guruh qipchoq shevalarida quyidagi fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi.

Shevada: Adabiy tilda:
əydəxər ajdaho
əbiyir obro‘
hökimət hukumat
nəyəti nihoyati
iras rost
o‘raza ro‘za
shayi shohi
gosh go‘sht

(cc) BY

Zəvrə Zuhra
Vəyit Vohid
Mamət (məhəmət) Muhammad va boshqalar.

Bu holni biz, birinchidan, qipchoq sheva vakillarining xususan, sharqiy guruh sheva vakillarining arab va fors tillari , vakillari bilan nisbatan kam munosabatda bo‘lganliklari bu sheva vakillarining o‘ziga xosligi (qishloq joyda yashab kelganliklari, ko‘proq chorva bilan shug‘illanganliklari va hunarmandchilik bilan nisbatan kam shug‘ullanganliklari) kitobiy terminlarni kam qo‘llaganliklari va shu kabi o‘ziga xos tomonlar bilan izohlaymiz.

Sharqiy guruh shevalar leksikasidagi arabcha so‘zlarni qo‘llashdagi o‘ziga xoslik shunda ko‘rinadiki, bu shevalarda abstrakt terminlar juda kam uchiraydi. Ularning borlari ham, asosan, diniy-klerikal terminlardir. *Masalan, jannat (jannat), dozaq (do‘zah), iqlas (ixlos), niyet (niyat), qiyamat-qayim (qiyomat-qoyim), gune (gunoh), savap (savob)* kabilar. Sharqiy guruh shevalarida diniy tushuncha bilan bog‘liq bo‘lmagan avstrakt terminlar ham uchiraydi. Lekin ular barmoq bilan sanarli darajada oz. *Masalan: vaq (vaqt), baq (baxt), iqbal (iqbol), taliq (tole)* kabilar.

Sharqiy guruh shevalariga singib ketgan arabcha so‘zlar him anchagina. *Masalan: mulk, meros, ovqat, xabar* kabilar[2;240].

Sharqiy guruh shevalariga arab tilidan kirgan termin va tushunchalarning ikkinchi guruhsi diniy marosimlar bilan bog‘liqbo‘lgan so‘z va terminlardir. *Misollar: nikə (nikoh), nəzr (nazr), niyaz (niyoz), pətə (fotiha), məvro‘t (mavlud), namaz (nomoz), oraza (ro‘za), shəyit (shohid), həyit (hayit).*

Arabchadan qipchoq shevalariga kirgan so‘z va terminlarning uchinchisi atoqli otlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va terminlardir. *Misollar: Äptikərim (Abdukarim), Äbdirəyim (Abdurahim), Äbdig‘ani (Abdug‘ani).*

Shevada: Adabiy tilda:
Äptikərim Abdukarim
Äbdirəyim Abdurahim
Äbdig‘ani Abdug‘ani
Äbjappar Abdujabbor
Äliqul Aliqul
Məmmətqul Muhammadqul
Äbdÿvəyit Abduvohid
Äbdihəkim Abduhakim
Allaqul Obloqul
Allanazar Ollonazar kabilar.

Sharqiy guruh qipchoq shevalari leksikasidagi arabcha nomlar ham adabiy tilimizdagi yoki shahar shevalaridagi arabcha nomlarga nisbatan ancha kam. Chunki umuman, qipchoq shevalarida esa, xususan, sharqiy guruh shevalarida kishi

(cc) BY

nomlarining ma’lum bir qismi aslida turkiy o‘zbekcha so‘zlardan tashkil topgan *Tursunboy (Tursunboy), Ҷaңңish (Yanglish), Enəqiz (Onaqiz), Tag‘ay, Ayqiz, Sulton, Qizlargul, Böribay, Törə, Saribay, Qarakul, Begman, Qoshman, Eshbay, Ҷoldash, Temir, Polat* kabi aniq ma’no anglatuvchi nomlardan iborat.

Sharqiy guruh shevalariga arab tilidan kirgan so‘z va terminlarning to‘rtinchi guruhsi konkret predmetlar yoki konkret tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va terminlar bo‘lib, bunday so‘z va terminlarning ko‘pchiligi sheva vakillarining hayotiga singib ketgan ancha mustahkam so‘z va terminlardir. Ular ham ko‘pincha fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda qo‘llanadi[3;260]. Misollar:

Shevada: Adabiy tilda:
Kitəp kitob
dəpter daftar
qalam qalam
avqat ovqat
məktəp maktab
vətən vatan
mechit machit
mədrəsä madrasa
ulama ulamo (olim ma’nosida)
vəkil vakil
misal misol
kÿlbä kulba kabilar.

Qarindoshlik terminlari.

Yuqoridagi qayd kilib o‘tilganidek, qarindoshlik terminlari sharqiy guruh qipchoq shevalari soha leksikalari orasida eng xarakterlisidir. Gap sharqiy guruh shevalaridagi karindoshlik terminlari ustida ketar ekan, bizningcha, ularni quyidagi guruhlarga bo‘lib ko‘rsatish mumkin.

Guruh adabiy tilimiz va shahar shevalarida butunlay uchramaydigan yoki ularda qo‘llanmaydigan qarindoshlik terminlarini kiritish mumkin. Masalan: kəttəta (katta ota) odatda, adabiy tilimizdagi bobo so‘zi o‘rnida qo‘llanadi. Bu xususiyat sharqiy guruh shevalari vakillarining, asosan, katta oilaga birlashib (ajralmasdan) yashashi natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa kerak. Bu terminning ba’zi bir o‘ziga xos stilistik ottenkalari (Masalan, oilaning kattasiga hurmat va uning o‘ziga yaqinligini ta’kidlash) ham bor.[4;600]

Bolə (bo‘la-xolavachcha) sharqiy guruh shevalarida opa-singildan tug‘ilgan bolalarga nisbatan ishlatiladi. Ma’lumki, adabiy tilimizda va shahar shevalarida, asosan, xolavachcha so‘zi qo‘llanadi. Shuningdek, ayrim to‘p (ota)larga nisbatan ham qo‘llanadi. Masalan: bələtop (bo‘la to‘p).

(cc) BY

Chechə (checha-yanga) so‘zi sharqiy guruh shevalarida asosan yanga ma’nosida qo‘llanadi. Bundan tashqari, shu shevalarda adabiy tilimizdagi yanga so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan jənga varianti ham qo‘llanadi. Sharqiy guruh shevalarida esa bu so‘z qiz uzatish vaqtida kelin-kuyovga yangalik qilgan kishilarga nisbatan qo‘llanadi. Yangalik qiluvchi ayol kishi-kuyovning o‘z chechasi-yangasi bo‘lishi ham mumkin. Yoki boshqa bir tanish tadbirkorroq ayol bo‘lishi ham mumkin. Kəymikə (qaymika-qayin beka, qayin opa ma’nosida) so‘zi Sharqiy guruh shevalarida xotinning yoki erning opasiga nisbatan qo‘llanadi. Lekin chaqirishda ularga “opa” deb murojaat qilishadi.[5;260]

Umuman, Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasidagi qadimiy o‘zlashmalarni tadqiq etish nafaqat hududiy dialektlarning lug‘aviy tarkibini tavsiflash, balki o‘zbek tilining tarixiy shakllanishi va boshqa tillar bilan kechgan uzoq muddatli munosabatlarini yoritish uchun ham muhimdir. Ushbu qatlamning shevalarda saqlanib qolishi tilning tarixiy xotirasi va leksik barqarorligidan dalolat beradi. Qadimiy o‘zlashmalarni etimologik, tarixiy-qiyosiy va leksik-semantik jihatdan kompleks o‘rganish natijasida o‘zbek shevalari leksikasining shakllanish omillari, tarixiy qatlamlari hamda hududiy xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Nodirabegim, 2021. - 176-b.

2. Reshetov V. V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1978. - 240-b.

3. Ishayev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. - Toshkent, 1990.

4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). - Toshkent: Universitet, 2000. - 600-b.

5. Abdurahmonov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. - Toshkent: Fan, 2009. - 260-b.

(cc) BY